

KREDIT RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Muazzamov Akmal Akbar o'g'li
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10072979>

Abstract: *This article tries to improve credit risk management and reveal its specific aspects.*

Key words: *Scoring, political, economic, organizational, credit risks, customer composition and credit, liquid, insurance.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kredit riskini boshqarishni takomillashtirish va uning o'ziga xos tomonlarini ochib berishga harakat qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Skoring, siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy, kredit risklari, mijozlar tarkibi va ssuda, likvid, sug'urtalash.*

INTRODUCTION

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi avvalambor, unda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari bilan chambarchas bog'liq. Bank tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy sohadagi ustuvor vazifalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikamiz bank faoliyati, tijorat banklari rivojlanishi, ularning erkinlashuvi juda murakkabmuhitda, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy raqobat muhitida shakllanmoqda. Bugungi kunda bank faoliyatini erkinlashtirish sharoitida banklararo raqobatning kuchayishi va uning takomillashuvi zaruriyatga aylanib bormoqda.

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini to'la-to'kis olib borish, kredit riskini boshqarish ular tomonidan kredit siyosatining qay darajada tashkil etilganligiga bog'liq. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda, o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlashining muhim jihati hisoblanadi. Bu kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.

Oqilona kredit siyosati bank kredit portfeli sifatining oshirishga olib keladi. Tegishli ravishda, kredit siyosatining maqsadi, huquqiy tartibga solish diapozoni, mablag' olish imkoniyati, eng yuqori risk darajasi, ssuda portfeli balansi, muddatlar bo'yicha majburiyatlar va aktivlar tuzilmasini hisobga olish kerak. Shuningdek, kredit siyosatini ishlab chiqishda asosiy tamoyillarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Hozirgi davrda tijorat banki kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- kredit riski darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- ssudalarni risk guruhlari bo'yicha tasniflash;
- kredit portfelini kredit risklari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha optimallashtirish;
- qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvolidan, kredit riskini prognoz qilish maqsadida o'zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zahiraning yetarliligini baholash va uni o'z vaqtidato'g'rilab borish;

- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilishni, ularning likvidligini va daromadligini ta'minlash;

- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifati tahliliga asoslangan holda to'g'rilab borish.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda yuqoridagi tamoyillarga amal qilish, bankning kredit faoliyati samaradorligini oshiradi, o'z navbatida, bankning ko'radigan foydasi ham oshadi. Kuchli raqobatchilik muhitida bank kredit siyosatida kredit menejmentiga alohida e'tibor berish muhimdir, bu bankga bozor sharoitida samarali faoliyati yurg'izishi uchun zarur.

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatida olinadigan foydaning 80-85 foizgacha bo'lgan qismi uning kredit operatsiyalariga to'g'ri keladi. Shu sababli, har qanday bank o'zining aniq va yo'naltirilgan kredit siyosatiga, kredit portfelini samarali boshqarish mexanizmiga ega bo'lishi shart. Bu esa bank tomonidan beriladigan kreditlarning o'z vaqtida to'liq so'ndirilishi va bank foydasining kafolatidir.

Hozirgi vaqtda bank kredit portfelini boshqarishdagi muammolar asosan bozor munosabatlariga o'tish sharoitidagi iqtisodiyotning ahvoli bilan bog'liq bo'lgan muammolar hisoblanadi:

- aholi ayrim toifasining to'lov qobiliyati pastligi va oladigan daromadlar yetarli darajada emasligi;

- olingan kreditlarning ko'pchilik holatlarda maqsadsiz ishlatilishi;

- tijorat banklarida jismoniy shaxslarning kredit qobiliyatini baholash bo'yicha takomillashgan tizimning mavjud emasligi;

- banklarning yetarli resurs bazasiga ega emasligi;

- respublikamiz tijorat banklari kreditlash amaliyotida kredit shakllaridan to'laqonli foydalanilmayotganligi;

- tijorat banklari kreditlarining tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlanishida diversifikatsiya darajasining pastligi, ya'ni mamlakatning qatortijorat banklarida kredit portfelini diversifikatsiyalash talabiga rioya etilmayotganligi;

- kredit risklarini yuzaga keltiruvchi omillar, eng avvalo bank tomonidan aniq kredit siyosatining ishlab chiqilmaganligi;

- olinayotgan garovlarning to'g'ri tanlanmasligi;

- bundan tashqari kredit portfelining katta qismini bir tarmoqqa tegishli mijozlar tomonidan egallab olishi holatlari;

- moliyaviy hujjatlar tahliliga yuzaki yondashish;

- mijoz talab qilgan mablag'ning to'liq asoslanganligini aniqlashda qo'yilgan xatoliklar;

- kredit hujjatlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassisning yetarli malakaga ega bo'lmay qolishi (hozirgi sharoitda qoida va talablarning tez o'zgarib turishida bo'lishi mumkin);

- ta'minotlarning yetarli bo'lmasligi (garov bahosining asossiz ravishda yuqori bo'lishi);

- hujjatlarni tayyorlashda yo'l qo'yilgan xatoliklar (bank manfaatlarini yetarli himoya qilinmasligi);

- berilgan kredit bo'yicha muddat aniqlashda xatoliklarga yo'l qo'yish; qarzning so'ndirilish davrida yetarli nazoratning bo'lmasligi.

Yuqoridagi bayon qilingan barcha muammolar hozirgi kunda respublikamizda

mavjud bo'lgan barcha tijorat banklari uchun dolzarb, birlamchi, muammolar bo'lib hisoblanadi.

Banklarning kredit faoliyatini tekshirish amalda shuni ko'rsatadiki, bankning ichki me'yoriy hujjatlari va ushbu me'yoriy hujjatlarda mujassam bo'lgan kreditlashtirib olinishi muammoli kreditlar paydo bo'lishidan ularni ko'p hollarda to'liq himoya qila olmaydi. Mazkur me'yoriy hujjatlarga kredit bo'limining Nizomi va mansabdorshaxslar tomonidan qaror qabul qilinishi muvofiqlashtiruvchi yo'riqnoma ko'rinishidagi materiallar, vakolatlar taqsimoti, kredit berish to'g'risidagi ko'rsatmalar, Kredit qo'mitasi to'g'risida Nizom va boshqa shu kabilar kiradi. Ushbu me'yoriy hujjatlarni mavjudligi banklarda kredit ishini maqsadga muvofiq tashkil qilinishiga sharoit yaratadi hamda xodimlarning o'z vazifalariga bo'lgan mas'uliyatni oshiradi.

Ma'lumki, ko'p holatlarda katta miqdordagi kreditlar bankning hissadorlariga, ya'ni bankga aloqador bo'lgan shaxslarga beriladi. Bunda ular kelishilgan xolda bir-biriga kafolatlar berib, ba'zi holatlarda kredit taqdim etayotgan bankga hech qanday hujjatlar bermaydilar.

Natijada, bunday tartibda taqdim etilgan kreditlar muammoli kreditlarga aylanib, ularning muddatlari bir necha marotaba uzaytiriladi.

Qarz oluvchining garov majburiyatlari rasmiylashtirilishi jarayonida bankning mutasaddi xodimlari tomonidan ushbu jarayonga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Natijada shunday holatlar aniqlanganki, qarz oluvchi o'zining xususiy bo'lmagan dala-hovlisini yer uchastkasi deb garovga qo'ygan va shunga qaramasdan bank tomonidan unga kredit ajratilgan. Bundan tashqari garovga qo'yiladigan mahsulotning sertifikatini, narxi to'g'risidagi ma'lumot hamda zarur bo'lgan boshqa sug'urta hujjatlari yetishmaydi. Yoki sug'urta hujjatlari kerakli to'liq bo'lmasligi va noto'g'ri rasmiylashtirilishi ko'p uchraydi. Ayrim holatlarda sug'urta badalini qarz oluvchi tomonidan to'lamaganligi sababli sug'urta shartnomasi yuridik kuchga ega bo'lmay qoladi, natijada taqdim etilgan kredit qaytmaslik xataridan xaqiqatda sug'urtalanmagan bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida bank kredit portfeli sifatining pasayishi va unda muammoli kreditlar salmog'ining o'sishiga olib keladi.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarga yo'l qo'yilmaslik uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ushbu boradagi yo'riqnomalari va tijorat banklarining kredit siyosatlarini hamda kreditlash yuzasidan ichki kredit tartibotlari talablariga qat'iy rioya etish zarurdir.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari kreditlash jarayonini takomillashtirish, kredit riskini samarali boshqarishda o'z kredit portfellarini iloji boricha ko'proq chuqur tahlil qilib borishlari lozim.

Bizga ma'lumki, mijozlar tomonidan kreditni qaytarish istiqbolini aniq baholash va yo'qotishlar miqdorini kamaytirish maqsadida muqobil xarakterdagi dasturlar ishlab chiqish tavsiya etiladi. Kreditlarni qaytarishdagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va tegishli choralarini ko'rish natijasida muammoli kreditlarning ma'lum qismini bank uchun zararga aylanishiga chek qo'yish mumkin.

Ayni vaqtda bir qator obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida vaziyat shunday shakllanishi mumkinki, bunda ko'rilgan barcha chora-tadbirlarga qaramasdan, faqat kreditni undirish strategiyasini ishlab chiqish mumkin emas. Kreditlarni berish shartlarini turlicha ekanligi va muammoli ssudalarning yuzaga kelishidagi sharoitlarning bir xilda emasligi har bir muammoli ssudaga individual yondashuvini talab qiladi, ammo shunga qaramasdan muammoli kreditlarni undirish yuzasidan umumiy tizim ishlab chiqilishi lozim. Shunisi xarakterliki, kreditni undirish strategiyasini mijoz ahvolini oldindan tahlil qilmasdan turib, aniqlash mumkin emas.

Shu boisdan mijozning moliyaviy ahvolini baholash va vaziyatini kelgusida

rivojlanish prognozini ishlab chiqish zarur.

Jismoniy shaxslarning kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini baholashda bir muncha kamchiliklarga egamiz. Mamlakatimizda jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini baholashda, uning yillik daromadlari dinamikasi tahlil qilinadi va agarda uning daromadi kreditning asosiy qarzi va unga hisoblanib boriladigan foiz stavkasini to'lash qobiliyati bo'lsa, kredit so'zsiz taqdim etiladi. Lekin boshqa bir ko'rsatkichlar hisobga olinmaydi. Jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini baholashda "Skoring" usulidan foydalanishni yo'lga qo'yishni tavsiya etamiz. "Skoring" usulida mijozning nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy ko'rsatkichlari bo'yicha ham baho beriladi.

Shuningdek, garovni joriy qiymatini belgilab va sotilishi mumkin bo'lgan alohida aktivlarning joriy qiymatini belgilab olish mumkin. Kreditlarni undirish ehtimolini quyidagi holatlarda taqqoslash maqsadga muvofiqdir:

1. Kreditlashning qo'shimcha hajmlarini berish.
2. Mavjud qarzni undirilishini zudlik bilan talab qilish.
3. Qarzni restrukturizatsiya qilish.
4. Foizlarni to'lash muddatini uzaytirishga ruxsat berish.

Bank muammoli kreditlarni undirish strategiyasini ishlab chiqish uchun avval mijoz to'g'risida yetarli darajada ma'lumotlar to'planishi zarur. Buning uchun esa mijozning joriy ahvolini qo'shimcha tarzda mukammal tahlil qilish lozim. Tahlilni amalga oshirish uchun bank yetarli darajada ichki resurslarga ega bo'lishi kerak. Ayrim tijorat banklari o'zlarining ixtisoslashtirilgan bo'limlarini tashkil qiladilar, ko'pchilik tijorat banklari esa xolis auditorlik firmalarini maxsus tahlilini amalga oshirish uchun jalb etadilar. Zarur ma'lumotlarni yig'ish uchun bank xodimlari, ya'ni auditorlarning mijoz bilan uzviy aloqada bo'lishi zarurdir.

Kredit shartnomalarini tuzilish oqibatlarini, hujjatlarda aniq aks ettirilgan bo'lishi shart. Bunday oqibatlar odatda bank tomonidan qarzni undirish to'g'risidagi talabni qo'yilishini anglatadi. Bank har bir konkret vaziyatda qarzni talab qilishi huquqidan foydalanishini maqsadga muvofiq ekanligini anglab olishi kerak. Agarda qarzni zudlik bilan undirish maqsadga muvofiq bo'lmasa, unda kreditni restrukturizatsiya qilish shartlari aniqlab olinishi lozim. Rivojlangan xorijiy davlatlarda mijoz bir vaqtning o'zida bir necha bankdan kredit olish huquqiga egadir.

Shu sababli bank o'z mijozini boshqa banklardan olgan barcha kreditlari va ularni shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek ushbu mijozning har bir kreditlarini ustun jihatlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

Muammoli kreditlar bilan bog'liq holatlarni tadbiq qilish va ekspertlar tavsifnomalarini ko'rib chiqish natijasi bo'yicha bank ma'lum xarakter variantini ishlab chiqishi lozim. Bank muammoli kreditni undirish uchun ixtiyorida qancha vaqt qolganligini aniq bilishi va u kreditni undirish yuzasidan ko'rayotgan chora- tadbirlarni qarzni qaytarish imkoniyatlariga salbiy ta'sir qilmasligiga ishonishi lozim. Kreditni qoplashni to'lovga noqobil qarzdorlariga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlar doirasida yoki bu doiralardan tashqarida amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda huquqiy tadbirlar qo'llaniladi. Ikkinchi holatda esa qarzdor korxonani qayta tashkil etish va kreditorning qarzini restrukturizatsiya qilish talab qilinadi.

Qarzdorlarning moliyaviy ahvoli yomonlashishi sababli to'lovning dastlabki shartlari o'zgargan kreditlarrestrukturizatsiyalangan hisoblanadi. Agar bank tomonidan quyidagi amallarning hech bo'lmaganda bittasi bajarilsa, kreditlar restrukturizatsiyalangan hisoblanadi.

- foiz stavkasining kamaytirilishi yoki hisoblangan foizlarning undirib olinmasligi;
- jami asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan voz kechishi;
- kreditni to'lash muddatini kechiktirilishi yoki uzaytirilishi;
- foizlarga doir to'lovlarning bir qismi yoki umumiy miqdoridan voz kechish;
- oddiy sharoitlarda qarzdorlarga berilmay, balki kreditni resstrukturizatsiyalash zarurligi natijasida qilinishi mumkin bo'lgan yoki yon berishlar.

Korxonani qayta tashkil etish muammoli kreditlarni undirish strategiyasining keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Bunda mijoz faoliyatini mo'tadillashtirish maqsadida moliyalashtirish amalga oshiriladi. Odatda bunday hollarda tijorat banklari berilgan kreditlarni muddatini uzaytirishga, foizlarni to'lash muddatini kechiktirishga rozi bo'ladi.

Ayrim tijorat banklari hatto mijozning moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida unga qo'shimcha pul mablag'i beradi. Ana shunday yo'l bilan bank vakillarini korxonaga boshqaruv organlariga kiritish ta'minlanadi. Bank bergan kreditlarni nazorat qilib turish zarur va bu zarurat berilgan kreditni o'z vaqtida qaytarilishini, kelishilgan shartlarni to'g'ri bajarilishini va bu kreditlarning oxir- oqibatda muammoli kreditlar qatoriga qo'shib ketmasligini ma'qullashga qaratilgan. Shu bilan bir qatorda paydo bo'ladigan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularga qarshi choralar ko'rishdir. Bundan kelib chiqadigan maqsad shundan iboratki, berilgan kreditlar bo'yicha muammolar paydo bo'layotganini oldindan aniqlasa, bank mijoz bilan maslahatlashgan holda, uzoq kelayotgan muammoni oldini olishi mumkin.

Banklar eng avvalo bergan kreditlarini foizlari bilan hech qanday muammosiz va ortiqcha sarf-xarajatsiz ishlatib foyda olishni hojlaydilar. Berilgan kreditlar ustidan keyingi nazorat bank rahbariyati uchun nafaqat qarzdor ustidan nazorat qilishdir, balki kredit bo'limi mutaxassislarining bankning kredit siyosatiga qay darajada rioya qilayotganligini nazorati hamdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari kredit riskini boshqarishda, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarning ahamiyati nihoyat yuqoriligini inobatga olgan holda, ushbu ajratilayotgan kreditlarning samaradorligini baholash va qaytishini ta'minlash tijorat banklari zimmasiga zarur vazifalarni yuklashga olib kelmoqda.

Ma'lumki, hozirgi sharoitda tijorat banki tomonidan berilgan asosiy qarz summasi va hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarilishini kafolatlash uchun uzluksiz amaliyotni nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunisi xarakterliki, kreditni sifat jihatidan butun kredit operatsiyasi vaqti mobaynida kamdan-kam hollarda o'zgarmasdan qoladi. Mijozning moliyaviy imkoniyatlari iqtisodiyotning holati, garov bahosi xilma-xil omillar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi va tabiiyki, kreditning sifatiga ta'sir qiladi. Berilgan kreditlar ustidan amalga oshiriladigan nazorat jarayoni quyidagi ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga olishi kerak:

1. Operativ ma'lumot va ta'sir qiluvchi omillar ustidan nazorat qilish.
2. Kredit operatsiyalarini to'liq va mukammal tahlil qilish ustidan nazorat.

Kreditlar ustidan joriy nazoratni amalga oshirishda ushbu operatsiyalar turli darajalarda ikkita holis mansabdor shaxs tomonidan tekshirilishi lozim. Avvalo, joriy nazorat jarayoni ushbu mijozni kreditlashni amalga oshirgan yoki ushbu kreditni ishini yuritish topshirilgan bank xodimi tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, har bir kredit ishini ma'lum davriy oraliqlarda tahlil qilib borish, kredit operatsiyalarini amalga

oshirib borish ustidan nazorat qilish topshirilgan shaxs tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bunday ikki pog'onali tizimda har ikkala pog'onaning to'liq mustaqilligini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir va nazorat tizimidagi xodim kredit berish to'g'risidagi qarorda ishtirok etmagan bo'lishi lozim. Nazoratni ikkinchi yo'nalishi bo'lgan mukammal nazoratni amalga oshirishda faqat tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan ma'lumoperatsiyalarni to'liq tahlil qilish uchun tanlab olish imkonini beruvchi mexanizm ishlab chiqish lozim. Bank xodimi o'zi kredit ishi bevosita yuritayotganligi sababli mijoz bilan doimiy ravishda munosabatda bo'ladi. Bu esa, yangi ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi, u mijozning kredit shartnomasi shartlariga rioya qilayotganligi va to'lov layoqatligini baholash uchun katta imkoniyatga ega bo'ladi. Ayni vaqtda nazorat jarayoni mijoz bilan bevosita aloqada bo'lmagan shaxstomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, nazorat va tahlilni amalga oshirishda bank xodimi o'zining baholash xususidagi qarashlariga asoslanadi va eng muhimi bu baho uning mijoz bilan o'zaro shaxsiy munosabatlarining subyektivta'siri ostida bo'lmasligi kerak. Bank xodimi mijoz bilan doimiy aloqada bo'lishi ular orasida shaxsiy munosabatlarni bo'lishiga qulay muhit yaratadi.

Ikkinchidan, nazorat jarayoni bank xodimini to'g'ri kredit qarori qabul qilish imkoniyatini beradi. Xolis tahlil ssudani berish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda, bank xodimining holatini obyektivligini kafolatlash uchun zarurdir.

Alohida kreditlar ustidan nazoratni amalga oshirish bilan bir qatorda kredit portfelini sifatining ustidan umumiy nazorat o'rnatish lozimdir. Agar bank kredit berish xuquqiga ega bo'lgan bir nechta sho'balarga ega bo'lsa, unda kreditlarni to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni yig'ib borish va ularni bosh ofisdan kredit boshqarmasiga takdim etish lozim. Umumlashtirilgan ma'lumotlar ushbu kredit boshqarmasi tomonidan tegishli boshqarmaga uzatiladi. Bosh ofisdagi kredit boshqarmasi olingan barcha ma'lumotlarni tahlil qilish va belgilangan limitlarga rioya qilinishini ta'minlashi shart, chunki kredit portfelini tahlil qilish umumiy tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. Agarda salbiy tendensiyalar va normativlarning buzilishi aniqlansa, u holda bu buzilishlar tezda tahlil qilinishini va kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Bunday chora-tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- shubhali ssudalar bo'yicha asosiy qarz summasi va foizlarni uzaytirilishi (prolongatsiya) o'rniga ularni undirish yuzasidan talabnoma taqdim qilish;
 - kredit limitlari buzilishi hollari mavjud bo'lgan keskin sohalarga, qo'shimcha kredit berishni keskin ta'qiqlashni joriy qilish;
 - kredit limitlarining o'sishini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini muhokama qilish
- kredit foiz stavkasini o'zgartirish.

Kredit portfelida yuzaga kelgan tavvakalchiliklarni tahlil qilish bilan birga berilgan kreditlar ustidan nazoratni amalga oshirish kredit portfelining foydalilik darajasini, ya'ni kredit operatsiyalarning samaradorligini kuzatib borish ham zarurdir.

Bank kredit portfelida vujudga kelgan risklarni boshqarish instrumentlarining kredit talabnomalarini va mijoz haqidagi axborotni sifatli o'rganib chiqish kredit jarayonini tashkil etish uchun samarali axborot tizimini va nazoratini joriy etish, kreditlashtirish jarayonidagi subyektiv kamchiliklarni oldini olishga imkon yaratadi. Bank faoliyatining asosiy maqsadi kreditlarning hajmini emas, balki operatsiyalar daromadlilikini oshirishdir.

Kreditlarni qoplash jarayonining qoniqarsiz tarzda olib borilishi, bank amalga oshirgan operatsiyalardan kutilgan pul tushumlarini ololmasligiga olib keladi. Respublikamiz tijorat banklarining kredit riskini boshqarishni takomillashtirishga

qaratilgan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar hajmini ulardan jalb qilingan depozitlar hajmidan kam bo'lmashligiga erishish lozim. Jismoniy shaxslarni kreditlash hajmining oshirilishi mamlakatda ichki talabni rag'batlantiradi va xo'jalik subyektlarining realizatsiyasini jadallashtiradi. Shu bilan birga kreditlarning milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdagi roli oshadi.

2. Shuningdek, qarzdorlikni boshqarishni asosiy muammosi bu bank kredit portfelini ichki auditor tomonidan tekshirilmasligi. Bizning fikrimizga ko'ra, bu nazoratni mustaqil ichki auditorlar bajarishi lozim. Nazorat bank kredit bo'limiga yoki qoidaga binoan har yilda bir marotaba bo'lishi kerak emas. Bunday auditorlar faqatgina bankning ichki nazorat boshqaruviga bo'ysinishi kerak. Tekshiruv natijasi maxsus hisobotda ko'rsatilishi va u faqatgina bank boshqaruvi kengashiga taqdim etilishi kerak. Shuningdek, auditorlar kredit portfelini baholash bilan birga unga tegishli ko'riladigan chora tadbirlarni ham taqdim qilishlari lozim.

3. KAMI ni rivojlantirish lozim, shu bilan birga xususiy kredit axboroti byurolarini tashkil etishni ta'minlash lozim. Chunki faoliyat yuritayotgan Kredit Axborot Milliy Instituti mijoz tarixi haqida to'liq axborot bera olmaydi, KAMIga banklarning o'zi axborot beradi, bu yetarli emas deb hisoblaymiz. Unda jismoniy shaxslarning kredit tarixi haqidagi ma'lumotlari deyarli yo'q. Mijoz tarixi haqida qanchalik ko'p axborot berilishi, kredit riskini kamaytirishga yordam beradi. Bu maqsadga erishish uchun xususiy kredit byurolarini ko'proq tashkil etilish, uarda sof raqobat muxiti yaratilishini ta'minlash lozim.

Kredit majburiyatlarini sug'urtalashni takomillashtirish lozim. O'zbekistonda bank va sug'urta tashkilotlari amaliyotida ta'minotni, mulkni sug'urtalash amalga oshirilmoqda, lekin kredit risklarini sug'urta qilish xali yo'lga qo'yilgai yo'q. Kredit risklarni sug'urta qilishni yo'lga qo'yilishini ta'minlash lozim.

4. Kreditning ta'minlanganligiga e'tibor berish, kreditning ta'minlanganligi uchun yuqori likvidlikka ega bo'lgan vositalarni qabul qilish va ularning qiymatini to'g'ri baholash lozim. Bank bo'limida garovga olinadigan mulklarni to'g'ri baholay oladigan, ularning bozordagi narxlarini o'zgarishini, o'zgarish tendentsiyalarini baholay oladigan aloxida xodim bo'lishini ta'minlash zarur. Bunday xodimlarni tayyorlash uchun respublika markazidagi "Baholovchilar assotsiatsiyasi" bilan birgalikda mol-mulk, oltin buyumlar va boshqa mulkni baholash bo'yicha o'qish tashkil kilish lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan takliflarning amaliyotda qo'llanilishi, banklarning kredit portfelining sifatini oshiradi, kredit riskini boshqarishdagi yuzaga keladigan bir qancha muammolar oldini olishga erishiladi deb o'ylaymiz. Bu esa, hozirgi sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".- Toshkent: 2016.-56b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2016yil 25-aprel.
3. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: "IQTISOD- MOLIYA", 2018.
4. Abdullayeva Sh.Z., Karimov F.Sh., Navro'zova K.N., Ortiqov U.D. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. 2-kitob T.: TMI, 2015 yil.